

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

**TURKISTON MA'RIFATPARVARI HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING
(1889-1929) XOTIN –QIZLAR TA'LIMI HAQIDA QARASHLARI**

Rajabova Jamila Jumamurod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Email: bazarovanargiza1980@gmail.com

Tel: +998953165647

Annotatsiya: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ayollar ta'limi o'ziga xos rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirgan. Ushbu davrda ta'lim va madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar xotin-qizlarni ta'lim olishga yo'naltirish va ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur davrda ilm ziyolilari o'z asarlarida xotin – qizlarning ta'limi haqida o'z fikr mulohazalarini she'rlarida va maqolalarida ham yoritib o'tganlar. Jumladan Turkiston ma'rifatparvari Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining ko'plab she'rlarida, maqolalarida xotin-qizlar masalasi, ayollar ta'limi haqida to'xtalib o'tgan. U zamondoshlariga o'z qizlarini o'qitishni, qizlar ham iqtidorda erkaklardan qolishmasligini, ular uchun yangi usul maktablari qurish kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Kalit so'zlar: xotin – qizlar, ta'lim, ijtimoiy, jadidchilik, ma'rifatparvar, madaniyat, islohot.

Аннотация: В конце XIX - начале XX века в Туркестане женское образование переживало особые процессы развития. В этот период реформы в области образования и культуры играли важную роль в направлении женщин к обучению и вовлечении их в общественную жизнь. В это время интеллектуалы отражали свои мысли о женском образовании в своих произведениях, стихах и статьях. В частности, просветитель Туркестана Хамза Хакимзаде Ниязи в своих многочисленных стихах и статьях освещал вопросы, касающиеся женщин и женского образования.

Ключевые слова: женщины, образование, общество, джадидизм, просветительство, культура, реформы.

Annotation: In the late 19th and early 20th centuries, women's education in Turkestan underwent distinctive developmental processes. During this period, reforms in the fields of education and culture played a significant role in guiding women towards education and involving them in social life. Intellectuals of the time expressed their thoughts on women's education in their works, poems, and articles. In particular, the Turkestani enlightener Hamza Hakimzoda Niyoziy addressed issues related to women and women's education in many of his poems and articles.

Keywords: women, education, social, jadidism, enlightenment, culture, reform.

KIRISH. XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston mintaqasida ayollar ta’limida ko‘plab muammolar qatoriga jamiyat tomonidan qo‘yilgan cheklovlar, ta’lim tizimidagi noqulayliklar kirgan. Xotin – qizlar ta’lim olishiga ko‘plab noroziliklar va qarshiliklarga duch kelsada, ba’zi millat ziyolilari o‘z qizlarini ta’lim olishi uchun sharoit yaratib berganlar. O‘z uylarida maktab ochib, qizlarni o‘qitishga hissalarini qo‘shganlar. Biroq bu keng qamrovli bo‘lmagan, hamma qizlar ham birdek ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Shularni inobatga olgan holda millatning oydinlari bo‘lgan jadidlar barcha xotin – qizlarini ta’lim olib savodxon bo‘lishini o‘z she’rlari, maqolalari va drammatik asarlarida ko‘rsatib targ‘ib qilgan. Chunki ilmi, ma’rifatli ayolgina aqlan va ruhan barkamol, sog‘lom avlodni voyaga yetkazadi, hamda oiladagi totuvlikni saqlay oladi deb hisoblashgan. Shu sababli ham xotin – qizlarning ta’lim olib ma’rifatli bo‘lishi – o‘z davrining dolzarb masalalaridan biri edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xotin – qizlar masalasi hamda ta’limi haqidagi fikr – mulohazalari bugungi kunda tadqiqotchilar: tarixchilar, filologlar tomonidan tomonidan tadqiq qilib kelinmoqda. Jumladan, filologlardan G‘. Mo‘minov, L.Qayumov, M. Aminov, Y. Sultonov, H. Yoqubov, K. Polonskaya, professor S.L.Ginzburg hamda tarixchilardan D. Jamolova, Sh.Tilavova Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyatini tadqiq etib, xotin – qizlar masalasini ham o‘z monografiya, maqolalarida yoritib kelmoqdalar [6, B, 7-18]. Shuningdek, mazkur maqolani yoritishda Hamza Hakimzoda Niyoziyning besh tomlik “Tanlangan asarlari”, hamda maqola va she’rlaridan ham foydalanildi.

NATIJALAR. Turkiston jadidchilik harakatining vakillaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yil 6-martda Qo‘qonda tabib Ibn Yamin Niyoziy o‘g‘li oilasida tug‘ildi [5]. Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshligidan bilim olishga ishtiyoqi baland bo‘lgan. U dastlab maktabda keyin madrasada tahsil olgan. Keyinchalik matbuotda ham ishlagan. U o‘zbek tilidan tashqari boshqa tillarni, jumladan, arab, fors, rus va turk tillarini ham bilgan. 1913 – 1914 yillarda Hamza Hakimzoda Niyoziy chet elda jumladan, Afg‘oniston, Suriya, Turkiya mamlakatlarida Makkada sayohatda bo‘ladi. U sayohati davomida jahon davlatlarida ro‘y bergan o‘zgarishlar bilan tanishadi. Jahon davlatlari bilan o‘z davlatining taraqqiyotini taqqoslaydi va ta’limga e’tibor qaratib, islohotlar o‘tkazgan mamlakatlarga taraqqiy etishi mumkinligini anglaydi. Yurtni taraqqiy ettirish uchun eng avvalo, ta’lim tizimida islohotlar o‘tkazilishi, o‘g‘il va qizlarni bolaligidanoq ta’lim olish uchun sharoit imkoniyat yaratib berilishi zarurligini vatandoshlariga she’rlari, maqolalari va asarlari orqali yetkazib beradi. O‘zi ham qarashlar bilan cheklanmay, o‘z xalqini ta’lim olib savodxon bo‘lishi uchun bor imkoniyatini ishga soladi, maktablar ochib darsliklar yozishni maqsad qilib qo‘yadi. Dastlab, Hamza Hakimzoda Niyoziy jadidchilik vakillari bilan maktab ochish maqsadida, 1910 – yilda Toshkentga kelib yangi usul maktablarining o‘quv dasturlari va shart – sharoitlari bilan tanishgan va shunday maktablarni Qashqardarvoza mahallasida va 1911 – yilda Qo‘qon

shahrining Hojibek guzarida va 1914-yil Marg‘ilonda ochgan. Qiz bolalar o‘z davrining o‘qimishli ayollari tomonidan uylarida ochilgan maktablarda o‘qitilgan. Ayol muallimani “otinoyi”, “otinbibi”, “bibiotin”, “bibixalfa” deb ataganlar. Qizlar maktabi o‘g‘il bolalar maktablariga nisbatan ancha kam bo‘lgan, ko‘pincha maktabdorlarning, imomlarning xotinlari otinoyilik qilishgan [4, B. 215 – 216]. Hamza Hakimzoda Niyoziy maktab ochishdan tashqari bolalar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar ham yozgan.

Muhokama. Hamza Hakimzoda Niyoziy she‘rlari va drammatik asarlarida xotin – qizlar masalalarini, ularning ijtimoiy ahvoli, ta‘limi haqidagi qarashlarini ham keltirib o‘tgan. U 1908-yilda qo‘shni o‘lkalarda nashr etilgan gazetalar va ulardagi taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan tanishgan. Ma‘rifatli kishilar ta‘sirida milliy she‘rlar ham yoza boshlagan. She‘rlarida xotin – qizlar mavzusini keng yoritib, ularning haq – huquqlari, ta‘limi haqida dolzarb masala yoritilgan. Jumladan, “O‘zbek xotin – qizlariga” nomli she‘rida xotin – qizlar o‘zligini namoyon qilishiga chorlagan, ta‘lim olib ma‘rifatli bo‘lishga undagan [1, B. 196]. Bu she‘rda Hamza Hakimzoda Niyoziy xotin– qizlarimizni maktab ta‘limini olishi hamda ularni millat otalarining xotin – qizlarini o‘qitishga e‘tibor qaratgan va ilm-u fan sohasida o‘z yutuqlariga erishishini ta‘kidlab o‘tgan. Shuningdek, “Oy singlim, Oy og‘am” she‘rida ham Hamza Hakimzoda Niyoziy shu davrda xotin – qizlarimizning paranji o‘rab ichkarida o‘tirishini emas, ular uchun maktablar ochilib ta‘lim olishini va yurt taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shadigan mutaxassis bo‘lib yetishib chiqishini yoqlab chiqadi. Mazkur she‘rda zamondosh otalariga o‘z qizlarini o‘qitish kabi murojaat bilan chiqqanligini ham ko‘rish mumkin [2, B.164].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning shogirdi Qutli Saidjonova og‘zidan yozib olingan ushbu she‘r birinchi marta Bahodir Aminov tomonidan “Guliston” jurnalining 1980- yilda 3-sonida e‘lon qilingan va tanlangan asarlar to‘plamining 3 – tomida nashr etilgan. She‘rning 1-2 satrlarini Q. Saidjonova eslay olmagan. Qutli Saidjonovanning o‘zi birinchi qoraqalpoq sovet ayol artisti sifatida faoliyat yuritgan.

U 1906- yil tug‘ilgan. Qutli Saidjonova 1922-yil 21-avgustda Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishganida u Xo‘jayli shahar partiya komitetining xotin – qizlar bo‘limida ishlar edi. Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishuv uning keyingi taqdiriga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy uning san’atda o‘z o‘rnini topishiga yordam bergan. Qutli Saidjonova Hamza Hakimzoda Niyoziyning she‘rlarini to‘plab ijro etib yurgan, keyinchalik qoraqalpoq sohasida “Boy ila xizmatchi” pyessasidagi Jamila obrazini yaratgan [1, B. 541].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha” nomli asarlarida xotin – qizlar ozodligi va haq – huquqini himoya qilishni yoritilgan. U “Maysaraning ishi” deb nomlangan hikoyasida ham ayollar masalasini juda keng ko‘lamda ko‘rib chiqadi. Qahramoni Maysara o‘zining haq - huquqlarini qo‘lga kiritishga harakat qiladi, lekin muallif jamiyatda bu jarayonni qiyinlashtiruvchi omillarni hikoya davomida qayd etib ketadi. Hikoyada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jamiyatda ayollarning huquqlari, mavqei va o‘z – o‘zini anglash masalalariga urg‘u qaratadi. Xotin – qizlarning erk va ozodlikka

erishishlari va jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari uchun ta’lim olishlari kerakligini ko‘rsatadi [3, B.5].

“Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida “Maryam timsolida xotin – qizlarning ozodlikka intilishi, ta’lim olishi masalalarini eng muhim masala sifatida ko‘rsatadi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1915 – yilda “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” pyesasini yaratgan. Shuningdek, pyesada boy va kambag‘al o‘rtasidagi sinfiy tengsizlikni, xotin – qizlarning haq – huquqlariga rioya qilinmayotganligini tanqid qilib yozadi hamda qizlarni majburlab turmushga chiqarish kabi illatlarni qoralaydi. Pyesada Maryam eski maktabda tahsil olgan, o‘zi ko‘ngil qo‘ygan inson ta’sirida roman, gazeta, jurnal kabilarni o‘qib, qalbida ta’lim olishga ishtiyoqi yanada kuchaygan qahramon sifatida ko‘rsatiladi. U Mahmudxonga yozgan maktubida yurtni ta’lim olishga yo‘naltirish orqali yurtni taraqqiy ettirishi mumkinligini ifoda etilgan, birgalikda ijtimoiy hayotning dolzarb masalalarini matbuotda yoritib berishni, qizlar uchun qizlar maktabi ochish niyatlari borligini yozadi [3, B. 5 – 6].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Hamza Hakimzoda Niyoziy davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri xotin – qizlar ta’limiga e’tibor ekanligini, ularni ham o‘qitishga o‘z zamondoshlariga, millat otalariga o‘tkir maqolalari, she’rlari, asarlaridagi g‘oyaviy mazmun orqali da’vat etib, yetkazishga harakat qilgan. Ma’rifatli, ilmni mukammal egallagan ayollar millatning porloq kelajagiga asos soladi, aqliy, ruhiy, jismoniy jihatdan yetuk, kelajakda jamiyatga munosib hissasini qo‘sha oladigan barkamol avlodni yetishtira oladi, oiladagi ma’naviyatni, tinchlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynashini o‘z qarashlarida keltirib o‘tgan. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xotin – qizlar ta’limi haqidagi qarashlari, millatning ongini uyg‘otishga da’vat etuvchi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Хамза Ҳақимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар. – Тошкент: “Фан”, 1988. – В.196.
- 2.Хамза Ҳақимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар. – Тошкент: “Фан”, 1988. – В.164.
3. Tilavova Sh. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xotin – qizlar ta’limi haqidagi qarashlari // Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro – ilmiy konferensiya. – Buxoro: “Bukhara Hamd – print” nashriyoti. 2025-yil 12 – mart. – B.166.
- 4.Izbullayeva, G. (2022). Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. /darslik/ Gulchehra Izbullayeva. – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona. –B.215 – 216;
- 5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamza_Hakimzoda_Niyoziy
- 6.Xonqulov Shavkatjon Xursandaliyevich.Hamzashunoslik tarixining tadrijiy rivojlanish bosqichlari. Farg‘ona. 2024. – B.7-18.
7. Davronov A. Hamzashunoslik tarixi va uning tadrijiy takomili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –B.71.